

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

## ALISHER NAVOIY IJODIDA MA’RIFATNING YUKSAK AHAMIYATI

Makhliyo Mirzaakhmedova

O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

“Ijtimoiy fanlar va chet tillari” kafedrasini mudiri

[tsul77777@gmail.com](mailto:tsul77777@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada Alisher Navoiy ijodida **ma’rifat** mavzusi markaziy o‘rin egallashi va uning inson kamoloti hamda axloqiy yuksalish uchun asosiy omil sifatida talqin qilinishi yoritilgan. Navoiy ishq, hikmat, go‘zallik va axloq mavzularini ma’rifat tushunchasi bilan uyg‘unlashtirib, uni ilohiy in‘om va ruhiy taraqqiyot sari yo‘l sifatida ko‘rsatadi. Shuningdek, ma’rifatga erishishda ustozlarning muhim roli alohida ta’kidlanadi. Maqolada “Hayrat-ul abror”, “Lison-ut-tayr” va “Saddi Iskandariy” kabi asarlar tahlili orqali Navoiy asarlaridagi ma’rifatning inson va jamiyat hayotidagi ahamiyati ochib beriladi. Ma’rifatning shaxsiy va ijtimoiy uyg‘unlik manbai sifatida ko‘rsatilishi Navoiy merosining o‘lmas qadriyatlarini targ‘ib qilishdagi beqiyos o‘rnini tasdiqlaydi.

**Kalit so‘zlar:** qadriyat, qanoat, ma’rifatulloh, orif, ixtilof, munozara, rahnamo, murshid.

Aytish mumkinki, Alisher Navoiy ijodining bosh mavzularidan biri – ma’rifat. Ulug‘ shoir ijodida ishq, qanoat, erk, go‘zallik, axloq mavzulari haqida so‘z yuritilganda, albatta, ma’rifat haqida ham fikr bildirilgan. Zero, mazkur tushunchalarning biri insonda ma’rifat hosil qilish bilan paydo bo‘ladi, kamolga etadi. Mutafakkir shoir ma’rifatni “Ma’rifatulloh – Ollohni tanish” deydi, va “Hayrat ul abror”ning “Avvalgi munojot” bobida Olloh taolo Odamni go‘zal suratda yaratib yani unga o‘zini tanitgani – ma’rifatli qilganini yozib shunday deydi:

Ma’rifatingkim qila olmay sifat

Qilding ani orifi ul ma’rifat.

Haq taolo odamga o‘zini tanitish bilan ma’rifatli etdi. Ulug‘ shoir dostonlarida ma’rifatning sifat va xususiyatini, inson hayotidagi qiymatini qalamga olsa, g‘azallarida ma’rifatning ko‘ngil va ruhga ta’siridan so‘z yuritgan. Filologiya fanlari nomzodi N. Bozorova “Alisher Navoiy g‘azallarida ko‘ngil obrazi” kitobida ulug‘ shoir g‘azallarida Husni Mutlaqning tajalligohi va ma’rifat manbai bo‘lgan ko‘ngil holatlari o‘zining betakror va rangin ifodasini topganini, “Shoir ko‘ngilni “lahmi porai sanubari” (go‘sht parchasi – N.B.) deb emas, “badan mulkining sultoni”, “...ma’rifat bog‘idin vahdat rayohinining esgan nasimi va ruhoniyyat gulistonidin oshnoliq gullarining shamimi...”, – deb bilganini yozar ekan shunday deydi: “Ilm-ma’rifat – o‘zni anglash, xaqiqatga etish vositasi. Faqat ma’rifat tufayli ko‘ngil ko‘zguga aylanadi, jahonbinlik kasb etadi. Atrofdagi, tabiatdagi har bir narsa-hodisaning mohiyatini, sirini anglab etishga qodir bo‘ladi. Zero, “hikmat,

# “IZLANISH SAMARALARI”

## №9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

ma'rifat va muhabbatulloh – qalbning ozuqalaridir... Ma'rifat – jannat eshiklaridan bir eshikdir”. Shuning uchun dam Alisher Navoiy gʻazallarida inson saodati, kamoloti, umrning fayzi, shukuhi ma'rifatdan etishini ta'kidlab, «koʻngul kunjin» ganji ilm etish lozimligiga takror-takror urgʻu beradi. Ma'rifat – Alisher Navoiy gʻazallarining javhari deyish mumkin”.

Darhaqiqat, ma'rifat Alisher Navoiy asarlarini nurlantirib turadigan bosh mavzu. Shoir oʻz asarlarida ma'rifatni olamdagi butun ezguliklar va yaxshiliklar jamuljami, unga zid boʻlgan johillikni esa jami yomonlik, yovuzlik doyasi oʻlaroq talqin qiladi va bu ikki qarama-qarshi qutb insoniyat hayotida mudom mavjudligini, oqil odam johillikka yon bermay, oʻz saodati tomon ildamlashini uqtiradi. Mutafakkir shoir “Lison ut-tayr” da Talab va Ishq vodiysidan soʻng Ma'rifat kelishini aytib, bu vodiyni shunday tasvirlaydi:

Ma'rifat vodiysin ondin soʻngra bil,  
Dashti bepoyonligʻin nazzora qil.  
Kimki bu vodigʻa boʻldi muttasif,  
Topti anda hollarni muxtalif.  
Vodiedur yuz tuman ming onda yoʻl,  
Ul bu bir kelmay, oningdekkim bu ul.  
Ixtilofi juzv ila kul mundadur —  
Kim taraqqiyu tanazzul mundadur.

Shoir ma'rifat vodiysining cheksiz, bepoyonligini uqtirar ekan, tanazzul ham taraqqiy ham shunda ekanini ta'kidlaydi. Nega? Haqiqatda, ixtilof ham, bahsu munozara ham ma'rifatda kechadi. Inson bilgani sayin bilmasligi, qusur va illatlari, gunohlarini anglasa va tavbaga oshiqsa, bu saodat, oʻzni topishdagi yaxshi holat. Bil'aks, olgan bilimlaridan magʻrurlansa, kibru havo qilsa, oʻz kamchilik va qusurlarini koʻrmasa, shaqovat, tanazzuldir. Xoʻsh, nima toʻgʻri va nima notoʻgʻriligini inson qanday biladi? Toʻgʻri yoʻldan adashmaslik, saodatga borish yoʻli qanday? Buning uchun inson kimdan madad oladi? Kim insonga zulmatdan nurga chiqish yoʻlini koʻrsatadi? Kim unga mushkullarni echish sinoatini oʻrgatadi? Bu zot muallim, ustoz, murabbiy, usta, pir, murshid, rahnamo nomlari bilan ataluvchi zotdir. Alisher Navoiy inson ilmu ma'rifat, bilim va irfonga ustoz koʻmagisiz aslo etib boʻlmasligini ta'kidlaydi. Mutafakkir shoir asarlarida ustoz va shogird obrazi alohida mavqega ega. Butun umr oʻz ustozlariga sidqu sadoqat koʻrsatgan Navoiy oʻz asarlari orqali ma'rifat qasriga ustoz etovida borilishini aytadi va oʻquvchilarni ustoz rahnamoligida ilm dovonlarini oshishga da'vat etadi.

# “IZLANISH SAMARALARI”

## №9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Inson o‘zga maxluqotlardan farq qilib, Allohning kalomiga komil ekanligi, bundan tashkari, u Yaratganning yashirin (hali oshkor etilmagan) sirlarini o‘zida tashuvchi, go‘yo Alloh hikmatlar xazinasining bir bo‘lagi bo‘lgan maxluk ekanligi uning bu qadar sharafiga loyik va e‘zozli ekanligi boisidan:

"Turfa kamolingg‘a dog‘i komil ul,  
Sirri nihoningg‘a dog‘i homil ul.  
Ko‘ngliga kilding chu yakin ganji kism,  
Jismini ul ganjga kilding tilsim.

Shu bois ham Alloh kalomi bo‘lgan Quroni Karimda hazrati inson sha’niga: "Karramno - boshqa maxluqlardan mukarram qildik", "Axsani taqvim – eng chiroyli yaratilgan”, degan maqtoovlar bitilgan. Bundan tashqari, inson Xudoning ma‘rifatini (ya‘ni, uni tanish ilmini) bilishga qodir, dono maxluqdir:

“Ma‘rifating kim qila olmay sifat,  
Qilding ani orifi ul ma‘rifat”.

Bundan ko‘rinadiki, inson, Alisher Navoiy ta‘kidicha, Tangri taolo tomonidan ojiz, hikmat va fazilatlardan xoli zot sifatida vujudga keltirilmagan. Demak, inson – Allohning mo‘jizalar xazinasini, komil aql va fahmga ega bo‘lgan orif mavjudotidir.

Axloq masalasida Navoiy asarlarining o‘ziga xos xususiyati shundaki, u asarlarida hayosizlikni tasvirlovchi obrazlarni yaratmaydi. Shunisi xarakterliki, Navoiy asarlaridagi qahramonlarining hayotida “uyat o‘limdan qattiq” tamoyili amal qiladi. Masalan, “Hayrat-ul abror” ning oltinchi maqolatini odob-tavozu' masalalariga bag‘ishlab, qimmatli fikr va mulohazalarni, hikmatlarni bayon etgan Navoiy No‘shiravon haqida hikoya keltiradi. No‘shiravon podshoh bo‘lishiga qadar kunlardan birida yori bilan chashma xilvatida o‘tirib, unga qo‘l uzatayotganida ko‘zi nargis guliga tushib, qo‘lini tortib oladi. Chunki nargis ko‘zni eslatadi, ko‘z (birov) oldida yorga qo‘l uzatmoq odobdan emas:

Aysh, Navoiy, necha dilkash durur,  
Lek adab birla hayo xush durur.

“Saddi Iskandariy” dostonida ham Alisher Navoiy ilm ahllari, olimlar, ustozlar haqidagi chuqur falsafiy mulohazalar bayon etgan. Ulug‘ mutafakkir “Xamsa” tarkibiga kiruvchi boshqa dostonlardan hajman katta bo‘lgan (89 bobdan tashkil topgan) “Saddi Iskandariy” dostonini o‘ziga xos uslubda yaratgan. Dostonning 15-bobidan boshlab har to‘rt bob o‘zaro ichki bog‘liqlikda, bir mavzu asosida birlashtiriladi. Bu hol asar so‘ngiga qadar davom ettiriladi. O‘zaro umumiylik hosil qilgan mazkur boblarda:

# “IZLANISH SAMARALARI”

## №9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

1. Iskandar hayotiga oid biror bir voqea bayoni;
2. Shu voqeaga bog‘liq bo‘lgan falsafiy-axloqiy tushunchalar izohi;
3. Aytilgan fikrlar isboti uchun hikoyat;
4. Iskandar va olimlar (xususan, Arastu)ning savol-javobi keltiriladi.

Adabiyotshunoslikda e’tirof etilganidek, “Saddi Iskandariy” dostoni juda boy va go‘zal lavhalarga ega. Dostondagi falsafiy-tarbiyaviy chekinishlar, hikoya va hikmatlar hayotning barcha ko‘rinishlarini qamrab olgan hamda ularning har biri alohida qiymat va hikmatli mazmun kasb etgan Ayniqsa, shoirning o‘zi “Hikmat” deya nomlagan boblarda bayon etgan fikr-mulohazalari, ilgari surgan g‘oyalari chuqur falsafiy axloqiy xarakterga egaligi bilan boshqa qismlardan ajralib turadi. Asarning “Hikmat” boblari to‘la ma’noda nomini oqlaydi. Ularda tiriklik mohiyati, hayot falsafasi, inson umri, ma’naviy olami, davlat va davlatchilik siyosati, ilm va ma’rifatdan bahs yuritiladi. Dostonda 18 ta “Hikmat” keltirilgan. Ularda Iskandarning yuqorida aytib o‘tilgan masalalar yuzasidan olimlar peshvosi Arastuga, donishi zamon Suqrot va Luqmoni Hakimga bergan savollari hamda u zotlarning bu so‘roqlarga oqillik bilan bergan javoblari, pandu nasihatlarini ifodalangan. Bu ifodalar mutafakkir shoir dunyoqarashining naqadar keng va chuqurligini yana bir karra tasdiqlaydi. Chunonchi, shoh Iskandar:

Ne yo‘ldurki, maqsud erur manzili,

Ne ishdirki mahmud erur hosili?

ya’ni, qaysi yo‘l maqsad manziliga eltadi va qaysi ishning hosili maqtovgaga arzigulikdir? – deya bergan savoliga donishmand Arastu shunday javob qaytaradi:

Dedi: “Xalqdin o‘zni fard aylamak,

Fano ko‘yi yo‘linda gard aylamak”

O‘zni bilish va o‘zni anglash insoniylikning bosh maqsadi. Unga tolib bo‘lmoq uchun inson bu dunyo ostonasiga qadam qo‘ygan. Xo‘sh, bu maqsadga qanday erishmoq mumkin va u qay tarzda amalga oshadi? Bu ulug‘ alloma saboq berganidek, “Xalqdin o‘zni fard aylamak” – olam va olam hodisotlaridan ko‘ngilni ozod etish, “fano” – o‘zdagi barcha illatlardan forig‘ bo‘lish, “man”lik da’vosidan qutulish orqali yuz ochadi. Biroq bu xammaga ham nasib etmaydi. Shoir yozganidek:

Erur rohzan kimki ogoh erur,

Bu yo‘lda nekim mosivalloh erur.

Birov shoh vasliga qat’ etsa yo‘l,

Kerak voqif o‘lsa qaroqchidin ul.

# “IZLANISH SAMARALARI”

## №9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Shoir talqinicha, ko‘ngli Haqdan o‘zga barcha hoyu havasni tark etgan, ogoh odamgina yo‘lovchidir. Eng muhimi, vasl umididagi bu yo‘lovchi yo‘ldagi “qaroqchi”dan voqif bo‘lishi shart.

Navoiy o‘zining “Xazoyinul-maoniy”, Farxod va Shirinda va “Xamsa”ning boshqa dostonlarida Iskandar obrazi haqida ma’lumotlar berilganligini ko‘rishimiz mumkin. “Saddi Iskandariy” dostonida Iskandar obrazi asarning bosh qahramoni hisoblanib, u Navoiy yaratgan adolatli, ideal shoh obrazi sifatida talqin qilinadi.

Birov shahlar ichra erur muhtaram  
Ki, bo‘lg‘ay aning da‘bi afvu karam.  
Angadur jahon ahlidin fardlig‘  
Ki, oyini bo‘lg‘ay juvonmardlig‘.

Avf va karamni o‘ziga odat qilib olgan shoh boshqa shohlarga nisbatan himmatliroq bo‘ladi va juvonmardlik-saxovatni o‘ziga hunar qilib olgan kishi jahon esa ahli ichida yagona va tengsiz bo‘lishini yuqoridagi baytlari orqali keltirgan.

Bundan tashqari Navoiy shoh obrazini shunday yaratdiki, oddiy jamiyat kishisi ham undagi bu odatlardan o‘rnak oli yashash kerakligini ta’kidlaydi.

Shunday misralardan biri:  
Nekim o‘z qoshingda erur noravo,  
Ulusqa ani ko‘rma also ravo.

Iskandar orzu qilgan jamiyatda adolat tantana qiladi, nohaqlikka barham beriladi, jamiyatning taraqqiyoti olimlarning dono maslahatlari bilan amalga oshiriladi. Unda insonlar erkin, shod, baxtiyor yashaydilar.

Navoiy bu dostonda Arastu, Suqrot, Aflotun va boshqa olimlar o‘rtasidagi hikmatlar zanjirini yaratib, voqealarni sistemaga soladi va qahramonlar taqdirini yorqinroq ochib, obrazlarning badiiy kuchini oshiradi. Iskandar o‘sha davrdagi odamlar o‘rtasidagi salbiy munosabatlarni ko‘rib, ularning bu hayotda xursand yashashlari uchun hali vaqt bor deb o‘ylaydi. Buni Navoiy quyidagicha ifoda etadi:

Jahon ahlida yo‘q vafo, e rafiq,  
Erur rifq alardin judo, e rafiq!  
Adovat birla kindur oyinlari,  
Tuganmas adovat birla kinlari...  
Ato jon berib, o‘g‘lin o‘lturgali,  
O‘g‘ul ham anga tig‘i kin surgali.  
Qarindosh topsa qarindoshini  
Damodam tilar kesgali boshini.

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Mutafakkir shoir insonlik mohiyatini uning ijtimoiy faoliyatida – jamiyatga foydali kasb yuilan shug‘ullanishi, xalqqa manfaati tegishi, odamlarning og‘irini engil qilishida deb biladi. Uning xalq g‘amini o‘z g‘ami deb bilmaydigan odamni odam qatoriga qo‘shmasligi bejiz emas:

Odamiy ersang demagil odamiy –  
Onikim, yo‘q xalq g‘amidin g‘ami –

Qoidasiga amal qilib ijod etgan. Navoiyning insonni baxtiyor va mukammal ko‘rish orzusi asrlar mobaynida hamma avlodlar orzusi bo‘lib keldi va bugungi kunda ham o‘z jozibadorligini saqlaydi.

Navoiy butun umri va ijodi davomida xalqni uni farovonligini o‘ylab yashagan ijodkordir. Xalqqa foydang ko‘p tegishi bu o‘zingga qilgan foydangdir deb quyidagi satrlarda keltiradi:

Naf‘ing agar xalqqa beshakdurur,  
Bilki, bu naf‘ o‘zungga ko‘prakdurur.

Ijodkorning etuk ideal maqsadlari uning dastlabki ijodidan boshlab salmoqli asarlarida me’yoriga etadi. Iskandar, Arastu, Doro, Hoqon, Xizr kabi obrazlar Navoiy she’riyatining ilk bosqichlaridayoq shakllanib bordi. “Xazoyin-ul-maoniy”dagi bir turkum she’rlarning yaratilishiga, ularning g‘oya va mazmunini kuchaytirishga asos bo‘ldi. “Hayratul-abror” dostoni “Xamsa”dagi etuk qahramonlarning shakllanishiga zamin hozirlagan bo‘lsa, Farhod va Shirin”, “Saddi Iskandariy” dostonlari orqali mutafakkir shoir ustozlarning insonning nafaqat hayotiy faoliyati, jamiyatda o‘rin topishi, izzat-martaba obro‘-e’tiborga ega bo‘lishida, balki odamzodning ma’naviy, axloqiy, ruhiy kamolotida ham benihoya katta xizmati singishini yorqin ko‘rsatib berdi. Mazkur dostonlarni o‘qish, ulardagi obrazlar mohiyatini tahlil qilish orqali biz ulug‘ Navoiyning bu boradagi qarashlarini to‘g‘ri anglaymiz.

### Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Navoiy Alisher. Mukammal asarlar to‘plami. 20 tomlik. T.14. Mahbub ul-qulub. –Toshkent: 1998. – 92 b.
2. G‘azzoliy I. Ihyoi ulumid-din. 3- jild. – 47 b.
3. Bozorova N. Alisher Navoiy g‘azallarida ko‘ngil obrazi. –Toshkent: Fan, 2009. – 51 b.
4. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr.(Nasriy bayoni bilan). Mas’ul muharrir, so‘zboshi muallifi, izoh va lug‘atlar tuzuvchisi Rahmonov V. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2014. –472 b
5. Alisher Navoiy. Xamsa. Hayratul-abror. Farhod va Shirin. TAT.O‘n jildlik, J. 6. – Toshkent: O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2011. – B.15.
6. Abdulaziz Mansur. (tarj. va izoh muallifi). Qur’oni Karim. Al-Isro surasi 70-oyat. – 184 b. www.ziyouz.com.
7. Alisher Navoiy. Xamsa. Hayratul-abror. Farhod va Shirin. TAT.O‘n jildlik, J. 6. – Toshkent: – 6 b.

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

8. Alisher Navoiy. «Xamsa». –Toshkent: «Fan», 1960, –852 b.
9. Bozorova N. “Saddi Iskandariy”da nafs tarbiyasi va adolat talqini // O‘z A
10. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. (Nasriy bayoni bilan).G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – Toshkent: 2006. – 75 b.
11. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. Nasriy bayoni bilan, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent-2006, 228 b.
12. Alisher Navoiy. Xamsa. –Toshkent: Fan, -1960. 676-677 b.
13. Alisher Navoiy.Hikmatlar.To‘plovchi, so‘z boshi va izohlar muallifi E.Ochilov. – Toshkent: “O‘zbekiston” 2011, – 5 b